



**ZAMONAVIY TERGOV AMALIYOTIDA INSON HUQUQLARIGA OID YANGI
YONDASHUVLAR**

To‘ymurodova Kibriyo Abdirauf qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Email:abdumomintoymurodov@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada mamlakatimizda inson huquqlariga oid olib borilayotgan islohotlar, zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlariga oid yangi yondashuvlar haqida ma’lumotlar yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy tergov, protsessual hujjatlar, foto va videokameralar bilan jihozlangan uchuvchisiz havo apparatlari, 3D – modellashtirish usullari va boshqalar.*

Annotation: *This article provides information about the reforms related to human rights being implemented in our country and new approaches to human rights in modern investigative practices.*

Keywords: *modern investigation, procedural documents, unmanned aerial vehicles equipped with photo and video cameras, 3D modeling techniques and others.*

Аннотация: *в данной статье освещаются реформы, проводимые в нашей стране в области прав человека, а также новые подходы к правам человека в современной следственной практике.*

Ключевые слова: *современное расследование, процессуальные документы, беспилотные летательные аппараты с фото- и видеокameraми, методы 3D-моделирования и другие.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda “Inson sha’ni va qadr-qimmatini yo‘lida” g‘oyasini amalga oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda. Har bir amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilikdagi o‘zgarishlar inson manfaatlaridan kelib chiqib, uning foydasiga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta‘minlash sohasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining qabul qilindi. Ushbu hujjatda yaqin va o‘rta istiqbolda O‘zbekistonning taraqqiyot tendensiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan. O‘zbekiston tarixida 2023-yil aprel oyida ilk bor konstitutsiyaviy referendum o‘tkazildi, uning tamal toshi inson huquq va manfaatlarini ta‘minlash, inson qadr-qimmatini himoya qilishdan iborat bo‘ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



berdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlariga taalluqli konstitutsiyaviy normalar 3 baravardan ortiq ko‘paydi va 50 dan ortiq moddani tashkil etdi. Konstitutsiyada inson huquqlari, so‘z va vijdon erkinligi, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolarning teng huquqliligi tamoyillariga sodiqlik mustahkamlangan. O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida xalqaro miqyosda tan olingan huquqshunoslik institutlari – Miranda qoidalari, Xabeas korpus, Pro bone alohida normalar bilan belgilab berilgan. Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o‘zgartirmoqda. Jamiyatda «Yangi O‘zbekistonni birgalikda barpo etamiz» degan ulug‘vor maqsad shakllandi va «Jamiyat — islohotlar tashabbuskori» degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2020-yil 22-iyunda⁹⁹ Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya qabul qilinib, natijada inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yanada faollashdi, inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlar milliy qonunchilikka implementatsiya qilindi hamda davlat organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatiga tatbiq etildi. Mazkur Prezident Farmonida inson huquqlariga oid amaliyot har bir sohani qamrab olishi va davlat organlari xodimlarining ushbu sohasidagi ma’suliyatini yanada oshirish masalalari keltirib o‘tilgan. O‘zbekiston xalqaro maydonda amalga oshirayotgan barcha chora-tadbirlar doirasida inson huquqlarini amalga oshirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Mamlakatimiz xalqaro huquqning sub’ekti sifatida o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga ko‘tarildi va xalqaro shartnomalar tuzish tashabbuskori sifatida xalqaro normalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etib kelmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo‘llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o‘z aksini topmoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va aholining inson huquqlari bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo‘llab-quvvatlash dasturiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzildi. Farmonda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab qo‘yildi. 1996 yil 13 noyabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori Milliy markaz faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosi

⁹⁹ <http://www.insonhuquqlari.uz/oz>





hisoblanadi. Ushbu qaror orqali Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi to‘g‘risidagi Nizom va Milliy markaz tuzilmasi tasdiqlangan.

Mamlakatimizda tergov faoliyatida “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani to‘liq ro‘yobga chiqarish, jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etishni tashkil etish tergov organlarining faoliyatini qonun ustuvorligini va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta‘minlash tamoyili asosida takomillashtirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va zamon talablariga javob beradigan tergov sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini tubdan oshirish talab etilmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ushbu yo‘nalishga ilg‘or xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida Bosh prokuratura Akademiyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasini (keyingi o‘rinlarda — Akademiya) tashkil etish hamda unda jinoyatlarni tergov qilish sohasida kadrlarni amaliyot bilan uzviy bog‘liqligini ta‘minlagan holda yagona yondashuv asosida tayyorlashga qaratilgan uzluksiz o‘quv tizimini yo‘lga qo‘yildi. Mazkur tashabbuslar orqali inson huquq erkinliklari yanada mustahkamlandi va jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etishning zamonaviy usullari amaliyot jarayonida keng foydalanilmoqda. Bu kabi amalga oshirilayotgan islohotlar demokratik jamiyatda inson qadri va uning manfaatlari barcha islohotlarning bosh mezoni inson ekanligini ko‘rsatib beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov hilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹⁰⁰ PQ-2898-sonli qarori talablari ijrosini ta‘minlash, sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sodir etilgan jinoyatlarni “issiq izi”dan fosh etish, hodisa joyini sifatli ko‘zdan kechirish, turli izlarini va boshqa ashyoviy dalillarni aniqlash, olish, qayd qilish va saqlash uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti tomonidan namunaviy maxsus “tergovchi portfeli” joriy etildi. Mazkur portfelda hodisa joyini sifatli ko‘zdan kechirish, turli izlarini va boshqa ashyoviy dalillarni aniqlash, olish, saqlash va hodisa joyi holatini tezkor qayd qilish uchun to‘liq qulaylik va imkoniyat beruvchi zamonaviy texnik-kriminalistik vositalar (zamonaviy foto- va videokamera, noutbuk va ovoz yozib olish), protsessual hujjatlar namunalari jamlangan, shuningdek unda xodisa joyida jinoyat natijasida tibbiy yordamga muhtoj jabrlanuvchilarga birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun aptechka mavjud. Shuningdek, jinoyat ishlari bo‘yicha tergov xarakterlarini zamonaviy vositalar va raqamli texnologiyalar, jumladan, yuqori imkoniyatli foto va videokameralar bilan jihozlangan uchuvchisiz havo apparatlari (kvadroptlar) va masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirish

¹⁰⁰ <https://lex.uz/docs/-3180665?ONDATE=09.02.2022>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



hamda maxsus dasturiy ta’minot yordamida hodisa sodir bo’lgan joyning holatini 3D – modellashtirish usullarini qo’llashda innovatsion yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, yangilanayotgan O‘zbekistonda, avvalo, inson, uning hayoti, erkinligi, manfaatlari oliy qadriyat hisoblanib, xalq manfaati hamma narsadan ustun bo’lishi davlat rahbari tomonidan aniq ifodalab kelinmoqda. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha fuqarolarning ayrim takliflarga o‘z munosabatini bildirib, mamlakatimiz Asosiy qonunida jinoyat protsessiga doir aks etishi lozim bo‘lgan bir qator normalar to‘g‘risida takliflarini ilgari surdi. Shuningdek, jinoyat protsessiga doir zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlariga oid yangi yondashuvlar zarurligi ta’kidlandi. Zamonaviy tergov amaliyotida inson huquqlariga oid yangi yondashuvlar doirasida 2023 yil 27 sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida mamlakatimizda inson huquqlarini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganish, bu borada akademiya tinglovchilarining bilimlarini yanada oshirish maqsadida “Zamonaviy tergov faoliyatida inson huquqlarini ta’minlash masalalari” mavzusida ilmiy-amaliy davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. ¹⁰¹Shuningdek, davra suhbatini ishtirokchilari tomonidan dastlabki tergov va surishtiruv faoliyatida inson huquqlari ta’minlash masalalari, bu borada jinoyat protsessiga yangi joriy etilgan va takomillashtirilgan institutlar, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, ularning inson huquqlarini ta’minlash borasida ahamiyati, mavjud muammolar va ularning yechimlari borasida fikr yuritildi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani ro‘yobga chiqarish maqsadida har bir sohada ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

¹⁰¹ <https://proacademy-uz>

